

Arab Va O'zbek Perifrazalarining Semantik-Sintaktik Strukturasi

Ikrombekov Otabek Ilyosbek o'g'li¹

Annotatsiya: Maqolada perifrazalarning jahon lingvistikasida, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham bir qadar nazariy qarashlar asosida o'rganilganligi, olamning lisoniy manzarasini nomlashdagi o'rni, nutqimizni ta'sirchan, aniq, mantiqan pishiq, jozibador va betakror bo'lishi uchun xizmat qilishi, shu bilan birga, ona tilimizning boyligini, ma'no imkoniyatlari benihoya kengligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanishi asoslangan. Perifrazaning murakkab tabiatli hodisa ekanligi, uning o'rganilish tarixi, o'zbek tilshunosligida perifrazaga bag'ishlangan tadqiqotlarning nazariy jihatlari, o'ziga yondosh hodisalar bilan aloqadorligi, umumfilologiyada yagona nom bilan atalishi, til va nutqdagi o'rni, dunyo tilshunosligida perifrazalogiyani ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda ularning hosil bo'lish yo'llari, mavzuviy guruhlari, semantik- struktur turlari, periferik birikmalarning tipologik xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilayotganligi to'g'risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Perifraza, til, tilshunoslik, XXI asr, muloqot, nutq, Arastu, I.Z.Ilina, V.P.Utkina, I.R.Galperin, V.P.Grigorev, R.Qo'ng'urov, A.Hojiyev, I.E.Umirov, H.Shamsiddinov, D.Aytboyev.

KIRISH

Kishilik jamiyati vakillari qadimdan o'zaro muloqot jarayonida muayyan narsa, buyum, hodisa, tushuncha yoki voqelikni biror nom bilan atash, ular haqida oddiy (soddagina) ma'lumot berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularning muhim xususiyatlarini bo'rttirib tasvirlash, o'xshashlariga qiyoslash, o'ziga xos alohida belgilari asosida ifodalashga harakat qilishganki, bu, odatda, muloqot vakillariga ko'tarinki kayfiyat, nutqlariga esa ko'rk bag'ishlagan. Mutaxassislarning fikricha, shu asnoda tilning tasviriy vositalari shakllangan va takomillashib borgan.

Chiroyli, jozibador, purma'no, yoqimli nutq barcha zamonlarda ham inson zotini o'ziga jalb eta olganligi, shunday nutq egalari xalq orasida voizlar, notiqalar, suxandonlar sifatida qadrlanib kelinganligi hech birimizga sir emas. Taniqli olim Narzulla Jo'rayev ta'kidlaganidek: «Sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o'rnanishgan. Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafasat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq tarzida vujudga kelgan. Yurtimizda axloq benihoya serqamrov, qiyosi yo'q tushuncha sifatida ardoqlanib kelingan. Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutqdagi ma'qul va noma'qul so'zlarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilish, nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan».

Aslida, ikki yoki ko'proq kishilarning bir-biriga axborot yetkazishi va bir- biridan axborot qabul qilish jarayoni bo'lgan muloqot o'zbek jamiyatida odob-axloq me'yorlari, xushmuomalalik, hilmlik, hamsuhbatining ko'nglini asrash, so'zini avaylab ishlatish, suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy ahvoli, ruhiyati, muloqot o'rni, vaqti kabi o'nlab jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Ana shunday shirin suhbatgina tinglovchiga ham, so'zlovchiga ham estetik zavq berib, nutqiy muloqot ishtirokchilarining saviyasini, tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi. Vaholanki, fransuz yozuvchisi Antuan Ekzyuperi yozganidek: "Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi".

¹ O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti



Shirin suhbat, yoqimli muloqot yoki go'zal nutqning yuzaga kelishini bevosita tilning rang-barang imkoniyatlari ta'minlaydiki, shunday imkoniyatlardan biri tasviriy vositalardir. Jahon tilshunosligida ham murakkab lingvistik hodisa sanalgan tasvirlash vositalarining tabiatiga qiziqish XXI asr boshlariga kelib yuqori darajaga ko'tarildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Dunyo tillari orasida o'zbek tili nutqiy ifoda vositalariga o'ta boy tillardan biridir. Ana shunday tasviriy vositalardan biri serqirra tabiatga ega perifrazalardir.

Perifrazalar o'zbek tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham garchand alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur hodisaning lingvistik hususiyatlari to'la ma'noda o'z yechimini topmagan. Zero, perifrazalar badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida og'zaki nutqimizda ham, yozma nutqimizda ham nihoyatda ko'p qo'llaniladiki, bu ona tilimizning boyligini, ma'no imkoniyatlari benihoya kengligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Perifrazalar nutqimizni ta'sirchan, aniq, mantiqan pishiq, jozibador va betakror bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Garchi tilshunoslikda so'zlarning o'zaro munosabati masalasi tadqiqotchilar uchun muhim mavzulardan biri bo'lib, Arastu davridan bugungi kunga qadar o'rganilayotgan bo'lsa-da, perifraza strukturasi tashkil etuvchi so'zlar munosabati borasida izlanishlar olib borish zarurati sezilib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Antik davr mualliflari tomonidan muqaddas kitoblarda istifoda etilayotgan perifrastik birliklar qadimgi til va uslubiyat nazariyotchilari Aristotel, Kvintilian tomonidan qayd etilganligi, bundan tashqari, mahalliy va sharqiy slavyan tilshunosligining ham diqqat markazida bo'lganligi, ilm-fan to'la rivojlanmagan davrlardan boshlab ushbu atama talqin qilinganligi manbalarda qayd etiladi. XX asrning 50-yillarida perifrazalar dunyo tilshunosligida, ayniqsa, rus tilshunosligida I.Z.Ilina (1954), V.P.Utkina (1959)lar tomonidan lingvistik jarayon sifatida boshqa hodisa yoki vositalar (istiora (metafora), metonimiya, sinekdoxa, majoz (allegoriya), kinoya, sifatlash (epitet), kichraytirish (litota), mubolag'a (giperbola)) bilan bog'liq holda tasvirlangan. Perifrazalar emotsional-ekspressivlik ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan, so'zlovchining xarakter xususiyatini ochib beruvchi, tasviriy obrazlar orqali ifodalangan erkin ibora yoki butun jumla shaklida ma'noga ega bo'lgan tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida talqin qilinib kelingan.

Perifraza hodisasi jahon tilshunosligida atroflicha tadqiq etilganligi va unga turlicha ta'riflar berilganligiga e'tibor qaratar ekanmiz, tilshunoslikda XX asrning 70- yillaridan boshlab perifrazalarning xususiyatlarini o'rganishga qiziqish bir qadar oshganligini kuzatamiz. Perifraza lingvistik muammo sifatida birinchilardan bo'lib V.P.Grigorev tadqiqotlarida so'z-obraz-denotat munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganildi. Olim uni «poetik nutq hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri», deb tavsifladi. Perifrazalarning ekspressiv xususiyatlari, uslubiy figuralar va tropolar tizimidagi o'rni S.Ya.Makarova kuzatishlarida perifrazalarning fe'l birikmali tiplari asosida atroflicha o'rganildi. Bu davrda Yu.D.Apresyaning perifrazatsiya mohiyatini ochib berishga qaratilgan qiziqarli talqinlari tilshunoslar e'tiboriga tushdi. Olim insonning o'zi lingvistik perifrazatsiyalash qobiliyatiga ega ekanligini, ya'ni insoniyat voqelikni xohlagan narsa, tushuncha, tasavvur kabilarni, keng ma'noda butun borliqni tafakkurida obrazli ifodalay olishi mumkinligini misollar asosida dalillab bergan, bu soha mutaxassislarining perifrazalar tadqiqiga alohida qiziqishini uyg'otdi.

Bundan tashqari, I.R.Galperin perifrazaga "bir predmetning ma'lum bir xususiyatini ko'rsatish uchun uni boshka nom bilan atashdir" deya ta'rif berib, perifrazalarni til perifrazali va nutq perifrazali kabi turlar orqali izohlaydi. Til perifrazalarining ko'p qo'llanilishi va kontekstdan tashqarida xam tushunarli bo'lishini ta'kidlaydi. U nutqiy perifrazani mantiqiy va metaforik perifrazaga ajratadi. Metaforik perifraza metafora yoki metonimiyaga, mantiqiy perifraza esa predmetning o'ziga xos biror-bir xususiyatiga asoslangan bo'lishi haqidagi izoh bilan to'ldiradi.

I.V.Arnold ham shu fikrga hamohang tarzda perifrazani predmet nomining o'rnida uning asosiy xususiyatlarini ifodalovchi birikma yoki so'zning ta'rifini ifodalash uchun keltirilgan bo'yoqdor so'z birikmasi sifatida talqin etadi.



Yana bir tilshunos olim A.N.Kojin perifrazani «hodisaning ikkinchi nomi» deb ataydi va perifrazalar nutqning ekspressivligini oshirish vositasi ekanligiga ko‘proq e‘tibor qaratadi. U perifraza masalasiga publisistik nutqning stilistik birligi sifatida yondashish kerak, deb hisoblaydi. Mazkur tadqiqotlar asosida perifrazalar haqidagi fikrlar oliy o‘rta maxsus ta‘lim darsliklariga kiritildi va ularda perifraza publisistik nutqning ta‘sirchanligini oshiruvchi vosita, stilistik birlik sifatida talqin etildi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab perifrazalar tadqiqiga qiziqish yanada kuchaydi va bunda perifrazalarning hosil bo‘lish yo‘llari, mavzuviy guruhlar, semantik-struktur turlari, periferik birikmalarning tipologik tadqiqi, muayyan ijodkor asarlarida qo‘llanilgan perifrazalar, diniy matnlarda perifrazalangan birikmalar tadqiqiga alohida urg‘u berildi.

Ketrin Fuks perifrazalarning turli darajada bo‘lish -

a) lokutiv (axborot berish);

b) pragmatik (ya‘ni maqsad va muayyan vaziyatda tinglovchiga ta‘siriga qarab);

v) ramziy (badiiy matnlarda hodisalarni tavsiflash xususiyatiga ko‘ra) usullarini ishlab chiqdi,

Fransuz tilshunosi Sh.Balli perifrazalarga nisbatan «fikir (jumla)ni takrorlashning kengaytirilgan shakli» sifatida baho berishi munozaralarga sabab bo‘ldi.

Yana qator manbalarda perifraza sodda tushunchani murakkab usullar orqali ta‘riflash (I.V.Arnold), bir tushunchani bir necha so‘zlar orqali atash (M.V.Lomonosov), fenomenning mantiqiy ifodasini hissiy ifodaga almashtirish (A.A.Potebnya), obrazli sinonim (A.I.Efimov), oddiy so‘zni tavsiflovchi birikma bilan almashtirish (O.S.Axmanova), so‘zni kengroq ifoda etish sifatida tushuntiriladi.

Perifraza tushunchasiga B.Dal tomonidan berilgan ta‘rif yuqoridagi fikrlarni bir qadar umumlashtiradi. Chunonchi, olim perifraza yunoncha «siqilgan nutqning batafsil, keng tushuntirilgani» degan mantiqqa tayanib, so‘zni boshqa bir so‘z bilan ifodalash, bir so‘zni izohlash uchun so‘zlarni o‘zgartirish sifatida baholanishi zarur, deb hisoblaydi.

MUHOKAMA

Umuman, dunyo tilshunosligida perifrazalar talqiniga bag‘ishlangan juda ko‘plab monografik tadqiqotlar olib borilgan, barcha izlanishlarda bu atama «perefraz», «perifrazis», «perifrazis», «perifraza» «parafraz», «parafraza», «parafrazis» kabi fonetik hodisalarning variantlashuvi asosida izohlanganligiga guvoh bo‘ldik.

«Parafraza» va «perifraza» atamalarida «para» ham, «peri» ham yunonchadan olingan bo‘lib, «para» – yonida, atrofida, yonma-yon ma‘nolarida, «peri» – haqida, to‘g‘risida, xususida ma‘nolarida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida perifraza terminini qo‘llashni mantiqan to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Umumfilologiyada yagona nom bilan atalishi xususida H.Shamsiddinov ham o‘z mulohazalarida nufuzli lug‘atlar sharhiga tayangan holda perifraza atamasini qo‘llashni ma‘qul deb topadi.

Ilmiy adabiyotlarda bu hodisaga turlicha ta‘riflar berilganki, bu perifrazaning ko‘p aspektli, o‘zgaruvchan tabiatli ekanligidan darak beradi. Bundan tashqari, bu atamaning xorijiy lug‘atlardagi turlicha talqini, ularning farqli va o‘xshash jihatlari xususida ham bahs yuritilgan. Perifraza, aslida, grekcha so‘z bo‘lib (paraphrasis), u lingvistikada, jumladan, o‘zbek tilshunosligida «tasviriy ifoda» ma‘nosida qo‘llanilmoqda. Qayd etish kerakki, tadqiq etilayotgan hodisaning tasnifi o‘zbek tilshunoslari e‘tiboridan ham chetda qolmagan. O‘rganilgan manbalarga xronologik tarzda murojaat qilamiz:

Leksikograf O.S.Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik qomusiy lug‘atda perifrazaga «biror so‘zni (ba‘zi predmetlarning so‘zlar orqali oddiy ifodalanishini) tasviriy ifoda bilan almashtirishdan iborat bo‘lgan ko‘chim» degan izoh keltirilgan. O‘zbek tilshunosligida ko‘chim turi sifatida perifrazani o‘quv qo‘llanmalariga olib kirgan tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov 1983 yilda nashr etilgan «O‘zbek tili stilistikasi» qo‘llanmasida: «...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Bu termin perifraza, parafraz, parafraza deb ham yuritiladi», deb ta‘riflaydi.



A.Hojievning «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati»da perifrazalarga quyidagicha izoh berilgan: «Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma‘lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom. Masalan, dala malikasi, (makkajo‘xori)».

O‘zbek tili va tilshunosligi ilmida perifraza to‘g‘risidagi ilmiy ma‘lumotlar, asosan, M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida batafsilroq o‘rganilganligi bilan ko‘zga tashlanadi. Olimning ta‘kidicha: «Perifrazalar ma‘lum bo‘lagi yoki bo‘laklari ko‘chma ma‘noda bo‘lib, ular ma‘nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug‘aviy birlikdir. ... Perifraza holida maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo‘linish kechgan bo‘lsa ham, unda sintaktik qayta bo‘linish kuzatilmaydi».

O‘zbek tilshunosligida perifrazaga bag‘ishlangan ilk va jiddiy maqola H.Shamsiddinov tomonidan e‘lon qilingan. Maqola muallifi o‘zak masala – perifrazaning frazeologizm bilan umumiy va xususiy jihatlari haqida fikr yuritgan o‘rinlarda perifrazaning predmet-hodisani qayta nomlash, frazeologizmning esa belgini, holatni va harakatni qayta nomlashini dalillaydi hamda perifraza ham frazeologizmlar kabi til fakti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi.

Shuni qayd etish joizki, tilshunoslar orasida perifrazalarni frazeologik ibora tarzida talqin etuvchilar ham uchraydi. Jumladan, professor A.N.Kojin «goluboy ekran» (bu o‘zbek tiliga «zangori ekran» tarzida tarjima qilingan va aholi nutqida keng ommalashgan) perifrazasini frazeologik ibora sifatida tahlil qiladi.

I.E.Umirov «O‘zbek tili perifrazalari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tili perifrazalarini ilk marta monografik planda ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha o‘rgandi. Tadqiqotda perifrazalarga, asosan, nutqiy hodisa sifatida yondashildi va perifrazalarning quyidagi turlari ajratildi:

- a) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra: leksik perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifraza, logik perifraza, sof va kontekstual perifraza;
- b) semantikasiga ko‘ra: mualliflik ma‘nosini ataydigan perifraza, kasb-kordagi mahoratni anglatadigan perifraza, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini anglatadigan perifraza, ijodkor asaridagi biror g‘oya va mavzuni bildiradigan perifraza, san‘at namoyandalari yaratgan o‘lmas obrazlarni bildiradigan perifraza, muassasa va muayyan joylarni anglatadigan perifraza, suyuqlik va texnika predmetlarini anglatadigan perifraza, tabiat hodisalari va o‘simliklarni anglatadigan perifraza, jonivor nomlarini anglatadigan perifraza, shaharlarni ifodalaydigan perifraza.

Olim o‘zi ajratgan turlarning tabiati, mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, perifrazalarning kasb-hunar leksikasi, evfemizm, frazeologizm, sinonim, epitet, metafora (badiiy metafora), metonimiya, sinekdoxa, funksional ko‘chish kabi lisoniy hodisalarga munosabati ham I.Umirovning mazkur tadqiqotida batafsil yoritilgan.

S.Shodiev «Parafrazalar va ularning derivasion xususiyatlari» nomli maqolasida ayrim jo‘yali mulohazalarni bildirib o‘tadi. Tadqiqotchi talqinida perifrazalar qismlarining sintaktik aloqasi statik xarakterli bo‘lgani uchun ular turg‘un so‘z birikmalari qolipida o‘rganilishi lozim. Bunday birikmalarning sintaktik shakllanishi muayyan tushunchalarning nutqdagi ta‘sirchanligini oshirish maqsadi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ma‘lum bir lug‘aviy birlik shu maqsadda boshqacha nomlanadi. Masalan, dala malikasi, aql gimnastikasi perifrazalari makkajo‘xori, shaxmat yoki matematika tarzida tilimizning lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarning nutqda boshqacha nomlar bilan aytilib, mazmuniy salmog‘iga ko‘ra ta‘sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Olima F.Xolmurodova «Qutadg‘u bilig» leksikasi» mavzuidagi dissertasion ishida ham perifrazalar xususida ba‘zi mulohazalarni bildirib o‘tgan [29, B. 24]. Jumladan, «Qutadg‘u bilig»da qo‘llanilgan perifrazalarning asar qiymatini oshirishga, ma‘noni yanada yorqinroq ifodalashga, mazmunni teran yoritishga xizmat qilishi *türkün qutı* – «Bug‘ro Qoraxon», *köz yülü* – «ko‘z yoshi», *uluy kün* – «qiyomat», *qara yüz* – «xizmatkor», *ölüm tutyaqi* – «kasallik», *teriglik eşik* – «qabr» kabi misollarda tahlilga tortilgan. Yusuf Xos Hojib farzandni *köz yaruqi*, ya‘ni «nuri diyda», «ko‘z nuri» perifrazasi orqali tasvirlaydi: *Sen erdinmeña köz yaruqi tügäl, barir-men seniñdin esän edgü qal* – *Sen mening yolg‘iz nuri diydam eding, (endi) men sendan ketayotirman, eson, yaxshi qol* [32, B. 95]. Inson o‘z farzandini ko‘z qarog‘iga, ko‘z nuriga qiyos qiladi. Insonning eng nozik va ehtiyotlaydigan a‘zosi



uning ko‘zlari bo‘lgani uchun farzandni ham ko‘zi kabi aziz va mo‘‘tabar tutadi. Asarda qo‘llanilgan perifrazalar Yusuf Xos Hojibning so‘z qo‘llash mahoratidan darak beruvchi obrazli ifodalar hisoblanadi.

Professor S.Karimovning «Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari» nomli risolasida badiiy tasvir vositalarining tilimizdagi funksional chegaralanishi, ya’ni uslubiy xoslanishi masalalari tahlil qilingan. Tilshunos perifrazalarni qo‘llanishiga ko‘ra ikki turga ajratadi: «Perifrazlarda ham ikki a’zo – sub’ekt va ob’ekt mavjud. Lekin o‘ziga xoslik va noziklik shundaki, stilistik qiymatiga ko‘ra bu ikki jihat bir-biriga teng emas, ekspressivlik ham, emotsionallik ham ikkinchi komponentda. Birinchi komponent grammatik jihatdan gapda shakllanishi ham, shakllanmasligi ham mumkin. Lekin shakllanishi nutqiy ifodaning aniqligiga xizmat qiladi. Chunki ...*qalam ahli, kishi ruhining injenerlari, salomatlik posbonlari* deyilganda kim haqida gap ketayotganini matnsiz ham bemalol anglash mumkin bo‘lgan holda *erk kuychisi, millatimiz faxpi* kabi perifrazlarda gap kim haqida ketayotganini matnsiz aniqlab bo‘lmaydi» [16, B. 31]. S.Mamajonovning «Uslub, obraz, tasviriy vositalar» [21], T.Rasulovning «Badiiy obraz va obrazli tasviriy vositalar» [25], E.Ibragimovning «Badiiy tasvir vositalarining nomlanishi xususida ba’zi mulohazalar» [14], B.O‘rinboyevning «Funksional uslubiyat va uning mohiyati» [33], R.Normurodovning «Perifrazaning evfemik yo‘l bilan hosil bo‘lishi» [24] nomli maqolalarida ham perifrazalar tasviriy vositalar sifatida tahlilga tortilib, ularga badiiylik nuqtai nazaridan yondashilgan va ayrim umumiy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

D.Aytboyevning «O‘rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv», «Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv», «Sarlavhada perifrazalar» kabi maqolalarida shaxs nomlarini, o‘rin-joy nomlarini ifodalovchi perifrazalarning mavjudligi va ularning sarlavhaga chiqarilishi bilan bog‘liq tomonlariga e’tibor qaratilgan, biroq sotsial jihatdan tahlillari amalga oshirilgan emas [1, 2, 3].

XULOSA

Umuman olganda, jahon lingvistikasida, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham birmuncha asosli, faktik qarashlar ilmiy asoslangan va daliliy ashyolar asosida o‘rganilgan perifrazalar nutqimizning ko‘rkam, jozibador, ohangdor bo‘lishini ta’minlaydiki, ularsiz fikrimizni ta’sirchan, tasviriy ifoda etish qiyin. Zero, olamning lisoniy manzarasini nomlashdagi o‘rni beqiyos bo‘lgan perifrazalar muloqotni obrazli ifodalar bilan amalga oshirilishini ta’min etuvchi asosiy tasvir vositalaridandir.

Tilshunoslikda perifrazalar, ko‘pincha, metafora, metonimiya, sinekdoxa, frazeologizm, evfemizm va epitet kabi yondosh hodisalar bilan qorishtiriladi, o‘zaro farqlanmaydi. Perifraza ma’lum jihatlari bilan o‘xshatish, metafora, metaforik epitet kabi badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda tursa ham, ularni aynan takrorlamaydigan alohida hodisadir. U so‘zlar singari muayyan shaxs yoki narsa, hodisani alohidalikda (o‘ziga xos tarzda) atab kelib, tasviriy ifodani yuzaga keltiradi.

REFERENCES

1. Aytboyev D. O‘rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta’limi. 2006. № 4. – B. 19-22. (Aytboyev D. O‘rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta’limi. 2006. № 4. – B. 19-22.)
2. Aytboyev D. Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta’limi. 2007, № 4. – B. 34-39. (Aytboyev D. Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta’limi. 2007, № 4. – B. 34- 39.)
3. Aytboyev D. Sarlavhada perifrazalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 2007, № 4. – B. 65-68. (Aytboyev D. Sarlavhada perifrazalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 2007, № 4. – B. 65-68.)
4. Антуана де Сент-Экзюпери. Планета людей (Нора Галь таржимаси). 1963. – Б. 37. (Antuan de Sent-Ekzyuperi. Planeta lyudey (Nora Gal tarjimasi). 1963. – B. 37.)
5. Апресян Ю.Д. Синонимические средства языка и правила перифразирования. // Русский язык в национальной школе, 1972, № 3, 19-27. (Apresyan Yu.D. Sinonimicheskiye sredstva yazyka i pravila perifrazirovaniya // russkiy yazik v natsionalnoy shkole, 1972, № 3, 19-27.)
6. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – Москва: Флинта, 2005. – 384 с.



- (Arnold I.V. Stilistika. Sovremenniy angliyskiy yazik. – Moskva: Flinta, 2005. – 384 s.)
7. Базарская Н.И. Вторичная номинатсия в системе языковых знаков: (На материале перифраз английского и русского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 1988. – 16 с. (Bazarskaya N.I. Vtorichnaya nominatsiya v sisteme yazykovix znakov: (Na materiale perifraz angliyskogo i russkogo yazikov): Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Saratov, 1988. – 16 s.)
 8. Балли Ш. Французкая стилистика: Пер. с фр. – Москва, 1961. – С. 126. (Balli Sh. Franzuskaya stilistika: Per. s fr. – Moskva, 1961. – S. 126.)
 9. Galperin I.R. Stylistics / I.R. Galperin. – Moscow: Higher School Publishing House, 1971. – 343 p.
 10. Жўраев Н. Агар огоҳсен... – Тошкент: Шарқ, 1998. – 253 б. (Jo`rayev N. Agar oghosen... – Toshkent: Sharq, 1998. – 253 b.)
 11. Ибрагимова Э. Бадий тасвир воситаларининг номланиши хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, № 2. – Б. 88-89. (Ibragimova E. Badiiy tasvir vositalarining nomlanishi xususida ba'zi mulohazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 2009, № 2. – B. 88-89.)
 12. Ильина И.З. Перифраз и его стилистические функции в произведениях английской художественной литературы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1954. – 24 с. (Pina I.Z. Perifraz i yego stilisticheskiye funktsii v proizvedeniyax angliyskoy xudojestvennoy literaturi: Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. – Moskva, 1954. – 24 s.)
 13. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд: СамДУ, 1994. – Б. 31. (Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994. – B. 31.)
 14. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 267. (Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati. –Toshkent: O`qituvchi, 1985. – 267 b.)

